

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

## HOMILADORLARGA ANTENATAL YORDAM KO'RSATISH VA TUG'ISH YOSHIDAGI AYOLLAR REPRODUKTIV SALOMATLIGINI SAQLASH BOSHQARUVIDA GENDER ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISH ASOSIDAGI KEYS-MENEJMENT

**U.D.Allamuratova-** Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali “Akusherlik ginekologiya va oilaviy shifokorlikda ginekologiya” kafedrasasi assistenti.

**Xamidova M.S-**Respublika ixtisoslashtirilgan Ona va bola ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Surxondaryo viloyat filiali direktori o‘rinbosari, reproduktiv salomatlik bo‘limi boshlig‘i.

**Ro‘zmetova R.Yo.-** Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali 1-Davolash fakulteti III kurs talabasi.

**Muxammadiyev O.B-** Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali 1-Davolash fakulteti II kurs talabasi.

**Annotatsiya.** Shahar va barcha tuman tibbiyot birlashmalaridagi birlamchi tibbiy muassasalarda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining 2016 yil fevraldagi №137-sonli buyrug‘i asosida homiladorlikni olib borish va tug‘ruqqa tayyorlash onalar va go‘daklar o‘limini hamda ulardagi kasallik va nogironlikni oldini olishning eng zaruriy va zamonaviy talablardandir. (Mazkur standartning 5-beti.)

Aholi reproduktiv salomatligini mustahkamlash, tug‘ish yoshidagi ayollar statistik ko‘rsatkichlarini mujassamlashgan/integrallashgan holda yuritish va muntazam keys menejmenti orqali onalar va go‘daklar o‘limini kamaytirish bugungi kundagi viloyatdagi onalik va bolalikni muhofaza qilish uchun bizga maqsad va vazifalarimizni yanada oydinlashtiradi.

Mazkur keys-menejment sog‘liqni saqlash tizimi birlamchi bo‘g‘ini doyalari, patronaj hamshiralar, OP/OSHP, KTMP mudirlari, UASH mutaxassislar, reproduktologlar, ichki dorixona mudirlari, tuman va shahar O va BMQ bosh mutaxassislari, bosh akusher-ginekologlar hamda viloyat O va BMQ boshqaruvi mutaxassislariga hamda ijtimoiy soha yo‘nalishidagi xizmatchilar: psixolog, huquq-tartibot sohasidagi, din, fuqarolar o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyatini

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

muvofiqlashtiruvchi kengash mutaxassislari, adliya maslahatchilari, Xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim o'qituvchilari, Yoshlar Ittifoqi boshqaruvchi xodimlari uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlari:** keys-menejment (yoki ishni boshqarish), antenatal parvarish, integratsiya, kontratsepsiya vositalari, vertikal qatorlar, regionalizatsiya, voyaga yetmaganlarning nikohlari, gender zo'ravonlik, jinsiy ekspluatatsiya, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ijtimoiy xizmat taqdim etuvchilar, gender zo'ravonlik jabrlanuvchilari uchun reabilitatsiya markazi, shelter, viktimizatsiya, autoagressiya, ruminatsiya.

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi barcha viloyat va shaharlarida istiqomat qiluvchi aholi soni yil sayin demografik ko'rsatkichlar tahlil qilinganda, tug'ruqlar va tug'ilish ko'rsatkichlarining oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, aholi soni, jumladan yoshlar, fertil yoshdagi aholi qatlamlarining ko'payishi o'z-o'zidan nikohlar sonining va shunga mos ravishda tug'ruqlar ko'payishiga zamin yaratmoqda.

Yoshlar o'rtasidagi nikohlanuvchilar, homiladorlarni birlamchi hisobga olish, tug'ruqlar va tug'ilish ko'rsatkichining oshishi tug'ish yoshidagi ayollar o'rtasida istalmagan homiladorlik holatlari onalar va go'daklar o'rtasida nogironlik va o'limi ko'rsatkichlarining oshishiga bilvosita sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, aholi soni yildan yil ortishi malakali tibbiy xodimlarga ehtiyojni oshiradi. Birlamchi tibbiy sanitariya muassasalarida akusher-ginekolog mutaxassislarning yetishmasligi, o'rta tibbiy xodimlar, doyalar hamda UASH lar salohiyatini yetarli darajaga ko'tarishimiz kerakligi uchun ehtiyoj va dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

KTMP, OP va OSHP larda birlamchi tibbiy xizmat uzluksiz nazoratini olib borishning doimiy imkoniyatlari yetarli darajada emas. Shu maqsadda chekka hududlarga chiqish uchun avtoullov, uni yoqilg'i zahiralari bilan ta'minlash, qolaversa tog'li hududlarga borish ancha vaqtni hamda shu kabi muammolarni yechimini talab etadi.

JSST ma'lumotlariga ko'ra butun dunyo bo'ylab har yili 500 000 dan ortiq onalar vafot etadi, har yili 8 000 000 ayol homiladorlik bilan bog'liq asoratlardan aziyat chekadi. Millionlab ayollar homiladorlik bilan bog'liq asoratlardan natijasida nogironlikdan aziyat chekmoqda. Barcha onalar o'limining 80% to'rtta akusherlik

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

sababi (gipertenziya, qon ketishi, septik asoratlar va ekstragenital kasalliklar) bilan bog'liq. Ammo ularni oddiy, samarali va arzon choralar bilan oldini olish mumkin. (*№1 adabiyot. 3-5 betlar.*)

Bu jarayonda umumiy amaliyot shifokorlari va hamshiralar faoliyati alohida o'rin tutadi. Lekin asoratlangan homiladorlik rivojlanishida nafaqat tibbiy xodimlar, balki boshqa soha vakillari ko'magiga ham alohida ehtiyoj seziladi. (*№1 va №2 adabiyot materiallari*)

**Tadqiqot uchun materiallar.** Surxondaryo viloyati perinatal markazida shahar va tumanlardagi 2018-2023 yillarda sodir bo'lgan onalar o'limini tibbiy tahlillari o'tkazilganda, har doim aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlardan tashqari shu oilalarda turli xil ijtimoiy muammolar kelib chiqqanligi, ularga o'z vaqtida yechimi topilmagani hamda shunday muammolarning bemorlarda kasalligining og'ir asoratlari kuchayishiga olib kelgani yoki patologik holatlarga moyillik yaratganiga ishonch hosil qildik.

Bunday ijtimoiy muammolarning vujudga keltiruvchi bilvosita mavjud sabablarini o'rganib, ularning oldini olish hamda ayollar reproduktiv xizmati va go'daklarga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy xizmatlar va ularning nazorati keys menejmentini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shu jumladan biz sog'liqni saqlash tizimidagi milliy standart hamda protokollardan foydalangan holda, keys-menejmentga oydinlik kiritish uchun quyidagi jadvallarni tavsiya etamiz. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2016 yil fevraldagi №137-sonli buyrug'iga asosan ishlab chiqilgan **№1-jadval** ilova etiladi.

Bu jadval asosida homilador ayollar individual kartalarida 100% olib borish tartibi bilan ta'minlanib, har bir homilador ayolga individual tarzda antenatal kuzatuvini olib borish jarayonida maqsadli patronaj xizmati va profilaktik ko'riklar bilan qamrab olish uchun tashrif sanalari belgilangan. Mazkur olib borish tartibida 16 ta punkt ko'rsatilib, homilador ayolni individual, sifatli antenatal parvarishlash va tug'ruqdan keyingi davrda ham maqsadli patronajini olib borishga mo'ljallangan. Homilador ayolning tug'adigan vaqti oldindan taxminiy hisoblab chiqilib, uning qaysi xavf xatar guruhiga kirishi dastlabki tashrifida yoki antenatal kuzatuvlar jarayonida aniqlanadi. Homilador ayolni kuzatuvlar davomiyligida qaysi tug'ruqxonada tug'ish marshruti ko'rib chiqiladi. Regionalizatsiya tamoyillariga asoslanib, (*O'z.Res.SSV 28.06.2021 yil №151-buyrug'i*) tug'ruqqa yordam ko'rsatuvchi muassasa ehtiyojiga

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

ko'ra homilador ayolni tuman tibbiyot birlashmasi bo'limlariga, perinatal markazlarga yoki u yerdan o'z vaqtida Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy markaz yoki uning viloyatdagi mavjud filiallarga o'z vaqtida yo'llanmalar (yoki imtiyozli order) berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda aholiga ko'rsatiladigan ixtisoslashtirilgan perinatal, akusher-ginekologik va reanimatsion yordam ko'rsatish PF-5199-sonli Prezident Farmoni mezonlariga ko'ra amalga oshiriladi.

Viloyatning shahar va tumanlarida har oyning oxirgi sanalarida tug'ish yoshidagi ayollar inventarizatsiya hisobotlari ya'ni statistikasi olib boriladi. Shahar va barcha tumanlardagi ayollar maslahatxonasi hududidagi tug'ish yoshidagi ayollar ko'rsatkichlari quyida ilova etilgan 2-jadval bo'yicha oyma-oy yuritiladi.

**2-jadval.** 2-jadval bilan ayollar maslahatxonasi doyasi, patronaj hamshirasi, uchastkaga birlashtirilgan akusher-ginekologi yoki UASH vrachi ishlaydi. Oyida bir marta katta hamshira, OP/OSHP, KTMP mudiri tomonidan ko'rsatkichlari to'g'riligini tekshirib boriladi. Bunda mazkur jadval to'ldirilishi bo'yicha mas'ul xodim OP/OSHP, KTMP mudiriga ma'lumot beradi. Bosh mutaxassislar tomonidan hudud bo'yicha yakuniy oyiga bir marta shahar yoki tumanlardagi hisoboti olinadi.

## **2-jadvalni to'ldirish quyidagicha olib boriladi:**

“D” nazoratda turgan homilador ayollar sonini sanalib, 2-jadvaldagi III ustunning (kontratsepsiya qamroviga vaqtincha muhtoj bo'lmagan ayollar) 4-vertikal qatoriga qo'yiladi. Oyma-oy bu ko'rsatkich o'zgarib, ma'lum vaqt oralig'ida antenatal parvarishdagi homilador ayollar sonini ifodalaydi, keyin ularni kontratsepsiya qamroviga olinishi kerak bo'lganlar vertikal qatoriga o'tkaziladi, ya'ni V ustunning 1-vertikal qatoriga o'tkaziladi.

Bu jadvalda 4 ta katta guruhlar ajratilgan. Jumladan **I ustun** yil oylari hamda II, III, IV, V barcha tug'ish yoshidagi ayollar kichik guruhlari va VI ustunda fertil yoshdagi xotin-qizlar umumiy soni ko'rsatilgan. **II ustun** hozirda **kontratsepsiya qamrovidagilar:** Bachadon ichi vositalari (BIS), oral kontratsepsiya vositalaridan foydalanuvchilar (OK), inyeksion kontratsepsiya vositalaridan foydalanuvchilar (IK) kontratsepsiya vositalari bo'yicha “Dispanser” kuzatuvida turganlar va bir oy mobaynida birlamchi kontratseptiv vositalari (KV)lari qo'llanilgan ayollar soniga ko'rsatiladi.

**III ustun Kontratsepsiya qamroviga vaqtincha muhtoj bo'lmagan ayollar:** Bu ustunga umumiy qizlar (o'smir yoshdagi+turmushga chiqmaganlar),

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

birlamchi+ikkilamchi bepushtlik, yolg'iz ona (bevalar), homiladorlar, yosh kelinlar+tug'ishni rejalashtirganlar, klimaks (menopauza) yoshidagilar, o'zi va/yoki turmush o'rtog'i vaqtincha chet elga ketgan ayollar soni kiritiladi. Chet elga ketgan ayollar (migrant ayollar) hudud ichki ishlar boshqarmasi (IIB) pasport stoli ro'yxatida turganligini o'sha ayol uyidagi boshqa yaqin qarindoshlaridan so'rab surishtirib, aniqlik kiritiladi. Bu ustundagi ayollar vaziyat/keysdan kelib chiqib, u yoki bu guruhga o'tkaziladi. Homilador bo'lsa tug'ishi, tug'ruqdan so'ng kontratsepsiyaga muhtoj yoki qizlar turmushga chiqishi, klimaks yoshidagi fertil yoshidagi ayollar umumiy hisobidan chiqariladi va h.z.

Bu guruhdagi ayollar oilada tibbiy yordam va psixologik ko'makka muhtoj bo'ladi. Misol uchun o'smir qizlarga balog'at yoshidagi, bepusht ayollar turmush o'rtog'i-qaynona-qaynotasiga yoki oilaga 3-shaxs aralashuvini oldini olishga alohida e'tibor berilishi, yolg'iz onalarga ijtimoiy ko'mak ko'rsatish kabi va h.z.

**IV ustun Boshqa toifadagilar:** kontratsepsiyadan bosh tortganlar, bolalikdan nogironlar (ruhiy va boshqa orttirilgan kasalliklar sababli nogironligi mavjud bo'lgan), va +ko'chib kelganlar, -ko'chib ketganlar, boshqa (tabiiy, rezina mahsulotlari..) usullardan foydalanuvchilar, vaqtincha yashovchi yoki ijaradagilar hamda vafot etgan ayollar (jumladan onalar o'limi soni ham) kiritiladi. Ko'chib kelgan ayollar IIB pasport stoli ro'yxatiga kiritilishi shart. Ko'chib ketgan ayollar esa yashash joyi pasport stolidan ro'yxatdan chiqarilishi kerak.

Aynan xotin-qizlar o'rtasida yashash joyining noturg'un vaziyatlari, oiladagi o'zaro kelishmovchilik, qaynona-kelin munosabatlaridan so'ng kelin, homilador ayol va bolali ayollar ota-onasinikiga vaqtincha yashashga yoki oilaviy ajralishlarga majbur bo'ladilar. Bunday vaziyatlarda patronaj hamshira tomonidan homilador ayolni kuzatuv jarayonidagi uzviylik, aktiv patronajlar soni kamayib, tug'adigan ayol hayotiga xavf soluvchi har xil akusherlik patologiyalar rivojlanadi. (*№137 buyruq, xavf omillari, 76-bet*)

**V ustun Kontratsepsiya qamroviga olinishi kerak bo'lgan ayollar:** bu ustunga homiladorlikdan so'ng tuqqan va emizib yurgan (laktatsiya davridagi), tibbiy ko'riklarda ekstragenital kasalligi topilgan hamda tug'ishga mutloq va yoki nisbiy mone'ligi mavjud guruhiga kiritilib, bu toifa ayollarning alohida ro'yxati shakllantiriladi. Ayniqsa tug'ishga mutloq mone'ligi bo'lgan ayollar tashhisi, farzandlari soni ko'rsatilgan bo'lib, kontratsepsiya qamroviga olinishi shart. O'zbekiston Respublikasi SSV ning 10.09.2013 yildagi "Homiladorlikni sun'iy

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

to'xtatish standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi №312-sonli buyrug'ining yangi tahrirdan o'tkazilgan va qo'shimchalar kiritilgan milliy standartidagi homiladorlikni ijtimoiy va tibbiy ko'rsatmalarga ko'ra sun'iy to'xtatish mezonlariga asoslanib, tug'ishga mutloq mone'ligi bo'lgan homilador ayollarda homiladorligi to'xtatiladi. (Mazkur buyruqning №6 va №7-ilovalari)

Turmushga chiqmagan, lekin ekstragenital (EGK, misol: oligofreniya, chuqur debillik bilan, ruhiy va shunga o'xshash) kasalligi bo'lgan qizlar bundan mustasno. Sababi ularni kontratsepsiya vositalari bilan qamrash alohida yondashuv masalan, kasallik turi yuzasidan mutaxassis yordamini talab etadi. Bunday holatlarda albatta tor mutaxassislar yoki boshqa ijtimoiy xodimlar masalan, psixolog/psixiatr yoki xotin-qizlar bo'yicha mahalla mutaxassisi, diniy ishlar bo'yicha vakil, Yoshlar ittifoqi, huquqiy tartibot organlar mutaxassislari bilan birgalikda keys holati yechim topadi.

## **VI ustunda fertil yoshdagi xotin-qizlar umumiy soni oyma-oy ko'rsatiladi.**

Bunda mavjud barcha ustun vertikal qatoridagi xotin-qizlarning soni umumiyashtiriladi. Bu son yil oylari boshida o'zgarishi kerak hamda ustundagi vertikal qator ko'rsatkichlari o'zaro almashinadi. Bu ustundagi sonlar ham o'zgaruvchan bo'lib, o'smir qizlar soni kiritilib, menopauza (klimaks) yoshidagi ayollar, ko'chib ketganlar, vafot etganlar soni chiqarib tashlanadi.

Jadval orqali tarmoqlar yoki ayrim ajratilgan mikrouchastkalar yig'ilib, yagona bir tizimli statistik ko'rsatkichni o'zida jamlashi kerak. Lekin tug'ishga nisbiy va mutloq mone'ligi bo'lgan ayollar umumiy o'tkazilgan tibbiy ko'riklarda aniqlangan ekstragenital kasalliklar ichidan olinib, alohida ro'yxati shakllantirilishi shart. Bosh terapevt bu ko'rsatkichlarga mas'ul va reproduktologdan ma'lumotlarni olib, tibbiy ko'riklarda aniqlangan nosog'lom ayollarni ambulator yoki statsionar sharoitida sog'lomlashtiradi va hisobini yuritadi.

Ayollar maslahatxonasidagi o'smir qizlar ginekologi ham reproduktolog mutaxassisga hisobot taqdim etishi kerak.

III ustundagi kontratsepsiya qamroviga vaqtincha muhtoj bo'lmagan bepust ayollar, yolg'iz himoyaga muhtoj ayollardagi ginekologik kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash kerak. Shuningdek nikohdan o'tgan yosh kelin kuyovlar soniga ko'ra tumanda kutiladigan tug'ruq soni haqida taxminiy ko'rsatkichlarni hisoblab ko'rishimiz mumkin. Sog'lom farzand tug'ilishi maqsadida KTMP mudiridan nikohlanuvchi yoshlar haqida ma'lumotlar olib, sog'lomlashtirish rejasi tuziladi. (VM.№365-sonli qarori)

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

Viktimizatsiya-(lotincha-victim-qurbon, jabrlanuvchi ma'nosini anglatadi)-jinoiy tajovuzkorlik jabrlanuvchisiga aylantirish jarayoni yoki yakuniy natijasi bo'lib, viktimizatsiyaga jinoyat sodir etilgan vaqtdan boshlanadigan jarayon sifatida qaraladi. Yuz bergan voqeada "jabrlanuvchini ayblashga" yo'l qo'yish mumkin emas.

Autoagressiya-bu odam tomonidan o'ziga nisbatan nojo'ya harakatlarning amalga oshirilishi. Nojo'ya harakatlar deganda o'z joniga qasd qilish, jarohat yetkazish, alkogolizm, giyohvandlik, o'zini ayblash, o'zini o'zi haqorat qilish tushuniladi.

Jarohatdan keyingi sindrom-JKS yoki JK stress holati-tashqi omillar natijasida o'ta kuchli shikastlanadigan og'ir ruhiy kasallik. Zo'ravonlik harakatlari markaziy asab tizimi faoliyatining buzilishi, kamsitilish, yaqin insonlarning hayoti uchun qo'rquv natijasida ruhiy kasalliklarning klinik belgilari paydo bo'lishi.

Ruminatsiya (rumination) –psixiatriyada odam miyasida faqat bir xil fikr yoki mavzu aylanib qolishi bo'lib, boshqa barcha aqliy faoliyat turlarini gender zo'ravonlik jabrlanuvchi miyasidan siqib chiqaruvchi o'rnashib qolgan fikr.

Yuqorida ko'rsatilgan zo'ravonlik, oilaviy notinchliklar, uchinchi shaxs aralashuvi va ijtimoiy kam ta'minlanganlik, oilalarda tibbiy saviya yetishmasligi homilador ayollar, onalar va go'daklar o'limining ko'rsatkichlari oshishiga bilvosita sabab bo'lishi mumkin.

## **Homiladorlarga antenatal yordam ko'rsatish va tug'ish yoshidagi ayollar reproduktiv salomatligini saqlash boshqaruvida gender zo'ravonlikning oldini olish asosidagi keys-menejmentning xulosaviy ma'lumotlari va tavsiyalari:**

1. Yuqorida ilova etilgan №1 va №2-jadvallar sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini tibbiy xodimlariga quyidan yuqoriga qarab vertikal joriy etilishi uchun taklif etilgan. Sog'liqni saqlash onalik va bolalikni muhofazasi vertikal boshqaruvida nazorat va maqsadli tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.
2. №1 va №2-jadvallar asosida (savolnoma sifatida) tizimdagi muassasalarda homiladorlarga antenatal parvarish va reproduktiv salomatlikni saqlashda tibbiy xizmatning vertikal monitoringini olib borish mumkin.
3. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi organlar va tashkilotlar vakillari xizmat ko'rsatish turidan qat'iy nazar keys menejmentda "ijtimoiy-xodim" yoki "ijtimoiy vakil" deb nomlanadi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

- Xizmat ko'rsatish aholi hududidagi yuzaga kelgan har qanday murakkab muammolarni yechish usulini "ijtimoiy ish" sifatida qarash lozim. Masalan ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy huquqiy, ijtimoiy axloqiy va hokazolar.
4. Mahalla, oila, maktabgacha ta'lim, maktab va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarda xotin-qizlar, homilador ayollar, o'smirlar, nogironlar o'rtasida va shunga o'xshash boshqa aholi qatlamlari orasidagi uchraydigan har qanday zo'ravonlik yuz berganda "ijtimoiy xodimlar" o'rtasida hal etishni yo'lga qo'yishi muammoning yechimidir.
  5. Ijtimoiy ishga sabab bo'luvchi eng aktual muammoga tegishli ijtimoiy xodimni "keys menejment" ya'ni "ishni boshqaruvchi xodim" sifatida qarab va unga qo'shimcha ijtimoiy soha xodimlari o'z vaqtida yordamini ko'rsatadilar.
  6. Keys –menejmentni amalga oshirishni jamiyatning eng kichik bo'lagi-oila doirasida boshlab, mahalla, tuman va viloyat va undan yuqori darajagacha ko'tarish lozim. Ayniqsa birlamchi tibbiy muassasalarida patronaj xizmatida homiladorlarga tibbiy yordam ko'rsatish hamda tug'ish yoshidagi ayollar reproduktiv salomatligini saqlash, ayollarga gender huquqini ta'minlashda, onalar hamda go'daklar o'limini oldini olish va son jihatdan kamaytirishga erishishda boshqa ijtimoiy xodimlar yordamidan o'z o'rnida va sifatli foydalanishni yo'lga qo'yish kerak.
  7. Aholining demografik ko'rsatkichlari, onalar va go'daklar o'limi ko'rsatkichlari soni oshishi, xotin-qizlar sog'ligini muhofazasida ularning gender tengligini ta'minlash va huquqiy savodxonligi oshirish nafaqat tibbiy xodimlar kafolatli xizmati hamda javobgarligi emas, balki ijtimoiy soha vakillarining zimmasiga majburiyat sifatida aholi reproduktiv salomatligini saqlashda o'z natijasini beradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:**

1. O'z.Res.SSV birlashgan millatlar tashkilotining aholi jamg'armasi ToshPTI va TTA "Antenatal parvarish" o'qituvchilar uchun o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent 2023 y.

2. «Ayollar va bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyotida keys-menejment» Yevropa ittifoki va YUNISEF tomonidan moliyalashtirilayotgan «Janubi-sharqiy, janubiy va Markaziy Osiyoda migratsiya ta'siriga uchragan bolalarni himoya qilish» loyihasi doirasida 2020 yil 15-18 sentabr kunlari o'tkazilgan "Ayollar va bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyotida keys-menejment" seminar-trening materiallari.

3. 2020 yil 23-26 noyabr kunlari o'tkazilgan "Migratsiya ta'siridagi va qurolli mojarolar hududlaridan qaytgan ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalar va bolalarni



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida "Keys menejment jarayoni tartibi va standartlari" mavzusidagi trening materillari.

4. O'z.Res.SSVning 2016 yil fevraldagi «Birlamchi tibbiyot muassasalarida homiladorlik davrida parvarish va tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha standartlar» nomli №137-sonli buyrug'i

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining «Birlamchi tibbiyot muassasalarida ta'minot-logistika tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 08.05.2014 yildagi №168-sonli buyrug'i

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimidagi tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan "Reproduktiv salomatlik, oilani rejalashtirish va kontratsepsiya sohasida xizmat ko'rsatishga doir standartlar" (2018 yil)

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash va oila institutini mustaxkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 02.02.2018 yildagi №PF-5325-sonli Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi SSV ning 10.09.2013 yildagi "Homiladorlikni sun'iy to'xtatish standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi №312-sonli buyrug'i.

9. Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'limi statistik ko'rsatkichlari. (2018-2023 yillar)

10. 2021 yil 24-25 sentabr oyida Buxoro shahrida o'tkazilgan "Reproduktiv salomatlik: yangi imkoniyatlardan yangi strategiya sari" Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 13 sentabrdagi 718-sonli "Birlamchi tibbiy sanitariya muassasalarida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga, o'tkazilayotgan profilaktika tadbirlarining samaradorligi uchun mas'uliyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi"gi qarori.

12. O'z.Res.SSV ning 2019 yil 20 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tug'ruqqa ko'maklashish muassasalarida akusherlik amaliyotidagi kritik holatlarning auditini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 313 a-sonli buyrug'i.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining №365-sonli Qarori.

14. Gender zo'ravonlikka javoban tibbiy xizmatlar taqdim etishning standart operatsion ish tartiblari. UNFPA.Baktriya press.2021

15. Gender zo'ravonlikka idoralararo javob qaytarish. UNFPA. Baktriya press.2021